

QIZAMIQ KASALLIGIDA EMLANISH TAHLILI VA SAMARADORLIGI.

F.F. Karimjonov
G.Ortiqova

Mavzuning dolzarbligi. Qizamiq – viruslar keltirib chiqaradigan, yuqori kontagioz yuqumli kasallikdir. Dunyo miqyosida, ushbu infeksiyaga qarshi xavfsiz va samarali vaksinalar mavjudligiga qaramay, xanuzga qadar mazkur kasallik bolalar o'limining asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. Qizamiqdan o'lim xolatlarining 95% dan ko'prog'i aholisi kam daromadli va zaif infrastrukturaga ega mamlakatlarda qayd etilmoqda. Qizamiqning og'ir ko'rinishlari aksariyat to'yib ovqatlanmaydigan, ayniqsa, ovqat tarkibida A vitamini yetishmaydigan bolalarda hamda zich (tiqilinch) sharoitda yashovchi, shuningdek, OIV infeksiyasi yoki boshqa kasalliklar oqibatida immun tizimi zaiflashib qolgan shaxislar o'rtasida kuzatiladi.

Qizamiq kasalligi sog'lom odamga, infeksiya yuqqan shaxs bilan muloqot paytida, bemor aksirishi yoki yutalishi kabi xolatlar natijasida xavo-tomchi yo'li orqali yuqadi. Qizamiq bilan kasallangan kishilar kasallik simptomlari pado bo'lgunga qadar xam va undan keyin xam bir necha kun davomida boshqa odamlarga virusni yuqtirishlari mumkin. Bu kasallik chaqaloqlar va bolalar ko'p to'planadigan joylarda, masalan, maktabgacha bolalar muassasalarida, tibbiyot muassasalari yoki maktablarda osonlik bilan tarqaladi. Kasallikning dastlabki belgisi, qizamiq virusi yuqqandan keyin taxminan 10-12 kun o'tgach paydo bo'luvchi va bir necha kun davom etuvchi yuqori tana harorati hisoblanadi. Bu davirda bemorda burun bitishi, yo'tal, ko'z qizarishi va yoshlanishi kuzatilishi mumkin, shuningdek, yanoqlar ichki yuzasida mayda oq dog'lar (koplik dog'lari) paydo bukadi. Virus yuqandan keyin 7-18 kun o'tgach, odatda, bemorning yuzida va bo'ning yuqori soxalarida toshmalar paydo bo'la boshlaydi. Uch kun ichida toshmalar tana bo'ylab, so'ngra qo'l va oyoqlarga tarqaladi. Toshmalar 5-6 kun saqlanib keyin asta – sekin yo'qoladi. Qizamiq bilan emlanmagan besh yoshgacha bolalarning, ayniqsa chaqaloqlarning qizamiq bilan kasallanish xavfi yuqori xamada aksariyat ular kasallik asoratlaridan aziyat chekishadi, jumladan o'lim xolatlari xam kuzatilishi mumkin. Kasallangan chaqaloqlar og'ir diareya oqibatidagi kuchli suvsizlanishdan aziyat chekishi mumkin. Bolalarda, shuningdek oziqlanishning buzilishi, o'rta quloqning yalig'lanish, zotiljam va entsefalit (bosh mitya yalig'lanishi) rivojlanishi mumkin. Qizamiq Afrika va jaxoning boshqa endemik mintaqalarida bolalar o'rtasidagi ko'zi ojizlikning asosiy sababchisi hisoblanadi. Qizamiq orqali sodir bo'ladigan o'limning asosiy sababi zotiljam hisoblanadi. Zotiljamni, aynan qizamiq virusining o'zi yoki ikilamchi bakterial infeksiyalar keltirib chiqarishi mumkin.

Tekshiruvdan maqsad: Qizamiq kasalligini aholi o'rasida tarqalishi (epidemiyasi)ni oldini olish.

Tekshirish usullari: Farg'ona tumani hududida qizamiq kasalligini 2022-2023 yilar uchun 6 oylik emlash solishtirma axboroti.

2022-2023 yilar davomida qizamiq kasalligi buyicha rejali emlanganlar 2022-yilda 12 oylik bolalar yanvar oyida 415 tadan 410 tasi, fevral oyida 316 tadan 314 tasi, mart oyida 400 tadan 394 tasi, aprel oyida 380 tadan 374 tasi, may oyida 437 tadan 437 tasi, iyun oyida

465 tadan 460 tasi emlanish qabul qilgan. Absolyut ko'rsatkich 2413, intensiv ko'rsatkich 98,8%ni tashkil etadi. 2023-yilda yanvar oyida 475 tadan 89 tasi, fevral oyida 420 tadan 387tasi, mart oyida 506 tadan 483 tasi, aprel oyida 475 tadan 467 tasi, may oyida 488 tadan 473 tasi, iyun oyida 510 tadan 483 tasi emlash qabul qilgan. Absolyut kursatkich 2382, intensiv kursatkich 82,8%ni tashkil qilgan.

Xulosa: Qizamiq kasalligini oldini olishda asosiy profilaktik chora tadbirlar bu qizamiq komponentini saqlovchi vaksina(00 QSV) qulaniladi. Qizamiq epidemiyasi kelib chiqishining oldini olish uchun, qizamiqa qarshi ikki marta emlashning yuqori darajadagi qamrovini ta'minlash zarur. Qizamiq bilan kasalanib o'tganlarda mazkur kasallika qarshi bir umrlik immunitet shakilanadi. Qizamiq bilan global miqyosda kurshish uchun qizamiq va qizilcha bo'yicha global strategik reja (2012-2020-yillar) beshta xal qiluvchi komponentlarda mujasamlangan:

a) qizamiq komponentli vaksinalar bilan ikki marta emlashning yuqori darajadagi qamrovini ta'minlash orqali jamoaviy imunitetning yuqori kursatkichlariga erishish va uni barqaror ushlab turish;

b) taraqqiyotga erishish uchun kasallikning monitoring qilish va dasturiy sa'yi-xarakatlarni baholash;

v) epidemic chaqnashlarga javoban chora – tadbirlarni amalga oshirish va kasallik xolatlarini davolash uchun zarur salohiyatni barpo etish va uning barqarorligini ta'minlash;

g) axolining immunuzatsiyaga nisbatan talabini (extiyojini) va ishonchini shakilantirish uchun hamkorlik vositalaridan foydalanish;

d) iqtisodiy samarali amaliyotlarni qulab qullab – quvatlash,emlash ishlarini va tashxisot usularini yaxshilash borasida ilmiy – tadqiqotlar o'tkazish xamda ishlanmalar yaratish.